

Ichki ishlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2025 yil 30 yanvardagi PF–16-son Farmoni va u bilan tasdiqlangan Davlat dasturi bajarilishi yuzasidan

TAHLILIY MA'LUMOT

23.12.2025 yil holatiga

T/r	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalash tirish manbalari	Mas'ul ijrochilar vazirlik va idoralar	Ijro holati
"O'zbekiston – 2030" strategiyasining Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2025 yilga mo'ljallangan <u>AMALIY TADBIRLAR REJASI</u>						
1.	Avtomobil yo'llarida transport vositalarini erkin va xavfsiz harakatlanishini ta'minlash. Farmonning 10-ilova 20-band (87-maqсад)	Respublika bo'yicha barcha tartibga solingan chorrahalarga intellektual transport tizimlarini o'rnatish va yagona raqamli boshqaruv tizimi joriy etish.	2025 yil aprel oyidan boshlab yil davomida	Manfaatdor vazirlik va idoralar mablag'lari	Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimliklari, Transport vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi	TO'LIQ BAJARILDI. 2025 yil 20 martda Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan "Telecom soft" MChJning hamkorlikda Reja jadval tasdiqlanib, joriy yil davomida respublikadagi chorrahalarga 1 123 ta intellektual transport tizimlarini o'rnatish va 1 125 ta foto va video qayd etish vositalarini o'rnatish rejalashtirilgan. Hozirgi kunga qadar quyidagi ishlar amalga oshirildi: 361 ta chorrahalarga yangi zamonaviy svetoforlar o'rnatildi; <i>Ma'lumot uchun: Toshkent sh 85 ta, Samarqand viloyatida 128 ta, Jizzax viloyatida 20 ta, Andijon viloyatida 61 ta, Qashqadaryo viloyatida 26 ta, Sirdaryo viloyatida 6 ta, Namangan viloyatida 10 ta, Buxoro viloyatida 18 ta. Toshkent viloyatida 7 ta.</i> Shundan, 283 ta svetoforlarga boshqariluvchi kontrollerlar o'rnatilib, intellektual transport tizimlari ishga tushirildi; <i>Ma'lumot uchun: Toshkent shahrida 73 ta, Toshkent viloyatida 7 ta, Samarqand viloyatida 62 ta, Jizzax viloyatida 20 ta, Andijon viloyatida 61 ta, Qashqadaryo viloyatida 26 ta, Sirdaryo viloyatida 6 ta, Namangan viloyatida 10 ta, Buxoro viloyatida 18 ta.</i>

tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2025 yilga mo'ljallangan

MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

3.	Sudlar hamda tergov organlari faoliyatida ayrim protsessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini kamida 2 barobarga oshirish. Farmonning 12-ilova 22-bandi (84-maqсад)		2025 yilning IV chorak		TO'LIQ BAJARILDI. Bu orqali shaxsga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash protsessual harakatini masofadan o'tkazish imkoniyati yaratilib, bugungi kunga qadar mazkur tizim orqali 19 694 ta iltimosnomalar yuborilishiga erishildi. <i>Toshkent shahrida – 4 513 ta, Toshkent viloyatida – 2 719 ta, Samarqandda – 2 363 ta, Farg'onada – 1 551 ta, Namanganda – 1 410 ta, Andijonda – 1 392 ta, Surxondaryoda – 969 ta, Qashqadaryoda – 932 ta, Buxoroda – 783 ta, Xorazmda – 592 ta, Navoiyda – 582 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 521 ta, Sirdaryoda – 505 ta, Jizzaxda – 439 ta, Tergov departamentida – 318 ta, Transportda – 105 ta.</i> Shuningdek, “Elektron surishtiruv va dastlabki tergov” axborot tizimi orqali 29 ta tashkilotlardan 98 turdagi so'rovnomalarga onlayn javob olish imkoniyati mavjud. Axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining “E-ekspertiza” axborot tizimi bilan ham integratsiya qilingan. Joriy yilning 11 oyi 20 kunida mazkur tizim orqali jami 5 657 ta ekspertizalar onlayn tayinlanib, xulosalar olinishiga erishildi. <i>Toshkent shahrida – 1 231 ta, Qashqadaryoda – 888 ta, Toshkent viloyatida – 553 ta, Samarqandda – 528 ta, Andijonda – 464 ta, Navoiyda – 347 ta, Farg'onada – 282 ta, Sirdaryoda – 233 ta, Jizzaxda – 220 ta, Tergov departamentida – 211 ta, Surxondaryoda – 192 ta, Buxoroda – 165 ta, Xorazmda – 127 ta, Namanganda – 97 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 79 ta,</i>
----	---	--	------------------------	--	--

						<i>Transportda – 40 ta.</i> Bundan tashqari, joriy yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ–1, 111–son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida 1 iyundan “Elektron surishtiruv va dastlabki tergov” axborot tizimida “Taqdimnoma” platformasi ishga tushirildi. Mazkur platforma orqali jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida tergovchi va surishtiruvchilarning taqdimnomasini korxona muassasaga elektron tarzda yuborish hamda natijasini nazorat qilish jarayoni to'liq raqamlashtirildi. Joriy yilning iyun oyidan bugungi kunga qadar tizim orqali jami 6 289 ta taqdimnomalar onlayn yuborilishi ta'minlandi. <i>Samarqandda – 1 088 ta, Toshkent shahrida – 843 ta, Andijonda – 735 ta, Qashqadaryoda – 598 ta, Namanganda – 576 ta, Toshkent viloyatida – 522 ta, Farg'onada – 407 ta, Buxoroda – 303 ta, Xorazmda – 249 ta, Surxondaryoda – 241 ta, Sirdaryoda – 236 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 214 ta, Jizzaxda – 141 ta, Transportda – 54 ta, Navoiyda – 79 ta, Tergov departamentida – 3 ta.</i>
4.	Aholi punktlarida ikki va undan ortiq polosali tartibga solinmagan piyodalar o'tish yo'laklarini svetoforlar bilan to'liq jihozlash. Farmonning 12-ilova 23-bandi (84-maqсад)		2025 yilning IV chorak		Ichki ishlar vazirligi	TO'LIQ BAJARILDI. Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar, tuman (shahar)lar markazlaridagi ko'chalar, shuningdek, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining ushbu tuman (shahar)lar markazlari chegarasi ichidan o'tgan hududiy ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari xizmat ko'rsatish hududiga qarashli 2 659 ta tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylari mavjud. Shundan, 2024 yilda 978 ta tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylari (chorrahalardagi

						piyodalar o'tish joylari bilan) svetofor qurilmalari bilan jihozlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 noyabrdagi "Yo'l harakati qoidalariga piyodalar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 805-son qarori talablari asosida shahar va tumanlar markazidagi 320 ta tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylarida "Baland piyodalar o'tish joylari" (Qavariq) tashkil qilish belgilangan, shundan, 619 ta tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylarida "Baland piyodalar o'tish joylari" tashkil qilindi. Shahar va tumanlar markazidagi qolgan 1 361 ta tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylarining 20 foizi, ya'ni 272 tasi 2025 yil davomida svetofor qurilmalari bilan jihozlanishi rejalashtirilgan bo'lib, joriy yilning o'tgan davrida 272 ta (chorrahalaridagi piyodalar o'tish joylari bilan) tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylari svetofor qurilmalari bilan jihozlandi: <i>Toshkent shaxar-40 ta, Toshkent viloyati-20 ta, Samarqand-11 ta, Sirdaryo-10 ta, jizzax-14 ta, Navoyi-20 ta, Farg'ona-8 ta, Andijon-11 ta, Namangan-30 ta, Surxondaryo-20 ta, Qashqadaryo-30 ta, Xorazm-40 ta, Qaraqolpog'iston Respubdikasi-8 ta.</i>
5.	Jiddiy oqibatlar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarini kamida 50 foizga kamaytirishga erishish. Farmonning 12-ilova 27-bandini (87-maqsad)		2025 yilning IV chorak		Ichki ishlar vazirligi	TO'LIQ BAJARILDI. Yo'l infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 25 286 dona yangi yo'l belgilari o'rnatildi, 12 046 dona yaroqsiz holga kelganlari yangilandi, 691 dona yo'l ko'rsatkichlari o'rnatildi, 315 ta svetofor ob'ektlari qurildi, 241 tasi rekonstruktsiya qilindi, 3 mln 940 ming m² yo'l yotiq chiziqlari chizildi;

						Qarama-qarshi yo'nalishga chiqish bilan bog'liq YTHlarni oldini olish maqsadida 208 ming km muhofaza to'siqlar o'rnatildi. Piyodalar bilan bog'liq YTHlarni oldini olish maqsadida 1 920 ta maktablar oldida tezlikni cheklovchi yo'l belgilari, 77 ta tugmachali piyodalar svetoforlar (<i>EMB tomonidan</i>) o'rnatildi, 3 242 tadan ortiq piyodalar o'tish joylarida yo'l chiziqlari yangilandi. Respublika bo'yicha 91 ta avariya o'choqlari aniqlanib, ulardan 85 tasi bartaraf etildi. Avariya o'choqlarining yuzaga kelishiga asosan piyodalar o'tish joylari va xavfli burilishlar yoritilmaganligi hamda yo'llarda muhofaza to'siqlar o'rnatilmaganligi sabab bo'lgan. Bolalarda yo'l harakati qoidalari ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida: 2 491 ta maktabda yo'l harakati qoidalari sinfxonalari, 1 493 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maydonchalari tashkil etildi. Qo'pol qoidabuzarlar bilan kurashishga qaratilgan maxsus reydlarda jami 6 mln 879 ming (<i>shundan 1 mln 905 ming qo'pol</i>) qoidabuzarliklar aniqlandi, 518 956 ming transport vositalari jarima maydoniga joylashtirildi. Jumladan, 34 174 ta avtomobilni mast holda boshqarish, 11 526 ta qarama-qarshi harakatlanish, 95 328 ta svetofor ishorasiga bo'ysunmaslik, 519 139 ta qoidabuzar piyodalar, 762 935 ta hujjatlarsiz boshqarish holatlari aniqlandi. Yigirma va undan ortiq marotaba qoidabuzarlik sodir etgan 5 215 nafar haydovchilarning yashash manzillarida mahalla faollari ishtirokida targ'ibot muhokamalari o'tkazildi. Toshkent shahridagi tirbandlikni oldini olish maqsadida, 115 ta chorrahalarda svetoforlarning
--	--	--	--	--	--	---

						yonish vaqti transport oqimidan kelib chiqib optimallashtirildi, sutkaning tig'iz vaqtlari yuk avtomobillari harakati cheklandi, poytaxtning 20 ta muammoli chorrahalari bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi, 2 ta er osti va er usti piyodalar o'tish joylari qurib bitkazildi. 2025 yilning 12 oyida respublikadagi jiddiy oqibatlar bilan bog'liq hodisalari (<i>har 10 ming transport vositasiga nisbatan o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari</i>) soni 7,3 foizga yoki (<i>3,7 tadan 3,4 taga</i>) kamayishiga erishildi.
--	--	--	--	--	--	--

Ichki ishlar vazirligi